

OLOT TUMANI TARIXI VA ETNOLOGIYASI

Toshpo'latova Shaxnoza Shuhratovna

Osiyo Xalqaro Universiteti

“Tarix va filologiya” kafedrası

Tarix fani o'qituvchisi

Xudoyqulov Shoyiqul To'xtamurod o'g'li

Tarix ta'lim yo'naliishi 1-kurs talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11124219>

Annotatsiya. Ushbu maqola Olot tumani etnologiyasi, uning joylashgan o'rni. Olot atamasi kelib chiqish va ma'nolari bundan tashqari, Olot tumanining aholisi, tabiatи va xo'jaligi haqida ma'lumotlar yoritilgan.

Kalit so'zlar: Olot, arlot, Dengizko'l, Somonko'l, Qorong'iko'l, Sho'rko'l, Xo'jamsayod, Qarag'anjida.

HISTORY AND ETHNOLOGY OF OLOT DISTRICT

Abstract. This article is about the ethnology of Olot district, its location. In addition to the origin and meanings of the term Olot, information about the population, nature and economy of Olot district is covered.

Key words: Olot, arlot, Dengizkol, Somonkol, Korongkol, Shorkol, Khojamsayod, Karaganji.

ИСТОРИЯ И ЭТНОЛОГИЯ ОЛОТСКОГО РАЙОНА

Аннотация. В статье рассматривается этнология Олотского района, его местонахождение. Помимо происхождения и значений термина Олот, освещаются сведения о населении, природе и экономике Олотского района.

Ключевые слова: Олот, арлот, Денгизколь, Сомонколь, Коронгколь, Шоркол, Ходжамсаед, Караганджи.

Olot. Ushbu etnooykonim viloyatning Buxoro, Kogon, Olot tumanlarida Olot, Orlot, Arlot, Olotxona shakllarida uchraydi. Olot – arlot etnonimining fonetik o'zgarishga uchragan shakli. Olot o'zbek xalqi tarkibida uchraydigan urug'lardan biri bo'lib, aslida, turkiy va mo'g'ul xalqlari uchun umumiyy bo'lgan qabila nomidir. Chingizzon o'g'li Chig'atoyga taqdim etgan to'rtta qabiladan biri – arlot. Bu qabila Afg'onistonning shimoliy qismiga o'mashib qolgan. Movarounnahrda arlotlar kam bo'lsa ham, nufuzli qabilalardan hisoblangan Arlotlar o'zbek qavmlarining eng ko'p tarqalganlaridan biridir. Mazkur qavm Buxoro, Samarqand, Surxondaryo, Xorazm, va Qashqadaryo viloyatlarida, shuningdek, Afg'onistonning shimolida keng tarqalgan. Abulg'ozzi Bahodirxon o'zining "Shajarayi turk" kitobida orlot urug'ini "mo'g'ul avlodlari" deb atalgan qismida tilga oladi va arlot so'zining asl ma'nosi "onasining sevgan o'g'li" demakdir, deydi.

Arlot qabilasi 92 bovli o'zbek "qavmlari" qatorida "Jome at-tavorix", "Ravzat us-safo", "Shaybonynomda", "Abdullanoma", "Shajarayi turk" yodnomalarida, Alisher Navoiy asarlarida tilga olingan. Arlot etnonimi X.Doniyorov ishida olot tarzida qayd etilgan

Olot tumani — O'zbekiston Respublikasi Buxoro viloyatidagi tuman. 1943-yil 14-fevralda tashkil etilgan. 1960-yil Qorako'l tumaniga qo'shilgan. 1973-yil 26-dekabrda qayta tashkil etilgan. 1983-yildan yana Qorako'l tuman i tarkibida. 1989-yildan Olot tumani yana alovida tuman maqo-

miga ega bo'ldi. Buxoro viloyatining janubi-g'arbida joylashgan. Jan., janubi-sharqdan Qashqadaryo viloyati, janubi-g'arbdan eng katta masofada (75 km) Turkmanistonning Lebap viloyati (Amudaryo orqali), shimoli-g'arb va Shimoli-sharq tomonidan Buxoro viloyatining Jondor, Qorako'l, Buxoro, Qorovulbozor tumanlari bilan chegaradosh. Maydoni 3,22 ming km². Aholisi 77,9 ming kishi (2003). Tumanda 1 shahar (Olot), 8 shaharcha (Ganchi Chandir, Kesakli, Qirtay, Sola qorovul, Jayxunobod, O'zbekiston, Chovdur, Bo'ribek Chandir) va 10 qishloq fuqarolari yig'ini (Bahoriston, Guliston, Denov, Jumabozor, Kirlishon, Paxtakor, Soyinchorov, Tolqonsayot, Chandir, Chorbog') bor. Tuman hududi Zarafshon daryosining eng quyi qismida, Qorako'l deltasidagi tekislikda joylashgan. Relyefida keskinlik kam. Faqat Dengizko'l rayonida Dengizko'l botig'i (160 m) va Dengizko'l platosi o'rtasidagi balandliklar farqlanadi (Jilliqoya — 302 m, Somontepa — 280 m). Tumanning 10 % ga yaqin maydoni o'zlashtirilgan vohadan iborat, qolgan qismi qumli, gipsli, gilli, sho'rxok cho'llardir, 100 ga yaqin qoldiq ko'l bor. Ulardan eng kattalari — Dengizko'l, Somonko'l, Qorong'iko'l, Sho'rko'l, Xo'jamsayod, Qarag'anjida. Qorako'l daryosining quyi oqimi va sobiq Moxondaryo o'zani, asosan, tekislikdan iborat. Tuproqlari o'tloqi bo'z, qum-loq bo'z, taqir bo'z tuproklardir, janubida sho'rxoklar katta maydonni egallaydi. Yer osti sizot suvlari ancha yaqin.

Tuman hududida 132 quduqdan foydalanilmoqda. Yirik gidrotexnika in-shootlari va nasos stansiyalari mavjud. Tuman hududi orqali Amu-Buxoro, Amu-Qorako'l kanallari o'tadi. Foydali qazilmalardan O'rtabuloq va Olotda tabiiy gaz, qoldiq ko'llarda tuz, qurilish materiallari zaxirasi katta. Iqlimi keskin kontinental. Yanvarning o'rtacha temperaturasi — 0,4°, eng past temperatura —24°, iyulning o'rtacha temperaturasi 29,3°, eng yuqori temperatura 46°. Vegetatsiya davri 205 kun. Yillik yog'in 120-125 mm. Yovvoyi o'simliklardan boyalich, kovrak, yantoq, shuvoq, singren, saksovul, qandim, bahorda rang, qo'ng'irbosh, yaltirbosh va boshqa o'sadi. Yovvoyi hayvonlardan taroq barmokli qo'shoyoq, ingichka barmokli yumronqoziq, malla yumronqoziq, sug'ur, sassiqko'zan, qumsichqon, qum bo'g'ma iloni, charx ilon, cho'l mushugi, qushlardan tuvaloq, qorabovur, olabovur, qirg'ovullar va boshqa bor. Qumli cho'llarning tipik tabiiy komplekslarini qo'riqlash va boyitish maqsadida tuman hududida 1971-yilda Qorako'l qo'riqxonasi tashkil etildi. Qo'riqxonada 200 ga yaqin o'simlik turi (shundan 30 ga yaqin daraxt va butalar) bor. Qo'riqxonadagi suv havzalari (kanallar, ko'llar)da 30 ga yaqin baliq turi yashaydi. Sudraluvchilarining 30 xili, qushlarning 170 turi, sut emizuvchilarining 30 ga yaqin turi bor. Jumladan, qo'riqxonada zarafshon qirg'ovuli, qum quyon, qobon va boshqa ko'paytirilmokda.

Aholisi, asosan, o'zbeklar, shuningdek, turkman, qozoq, tatar va boshqa millat vakillari ham yashaydi. Aholi zichligi 1 km² ga 24,2 kishi (2003). Shahar aholisi 11,5 ming kishi, qishloq aholisi 66,4 ming kishi. O'zbekiston Respublikasining Buxoro viloyatiga qarashli bo'lgan Olot tumani viloyat hududining janubiy g'arb qismiga joylashgan bo'lib, shimol tomonidan Qorako'l tumani, sharq tomonidan Qashqadaryo viloyatining Bahoriston tumani, janub tomonidan Turkmaniston Respublikasining Farap tumani va g'arb tomonidan esa Qorako'l tumani bilan chegaralangan. Buxoro viloyati markazidan tuman markazigacha bo'lgan masofa 72 km.ni tashkil qiladi.

Olot tumani markazi Olot shahri bo'lib, 5 ta mahalla fuqarolar yig'ini (Eski Olot, Akkali, Bunyodkor, Xalifa va Nonimas mahalla fuqarolar yig'ini), 29 ta ko'chalardan iborat tarkibda tuzilgan. Tuman markazida yirik tashkilotlardan tuman hokimligi, Amu-Buxoro mashina kanali

boshqarmasi, Neft va gaz qidiruv ekspeditsiyasi, Telekommunikatsiyalar bog‘lanmasi, pochta aloqa xizmatlari idorasi, Olot pedagogika va sport kasb-hunar kolleji, Dehqon bozori mas’uliyati cheklangan jamiyati, Suvoqava ishlab chiqarish boshqarmasi va savdo, maishiy xizmat hamda umumiy ovqatlanish shaxobchalari mavjud. Olot shahrida 14,9 foiz aholi istiqomat qiladi. Tumanda M-37 xalqaro avtotrassa mavjud bo‘lib, Qorako‘l tumanidan Olot Bojxona nazoratidan o‘tish kompleksiga qadar 35 km.ni tashkil etadi.

Olot tumani aholisi soni 2013-yil 1-yanvar holatida 95,06 ming kishini tashkil qiladi. Shundan shahar aholisi 14,1 ming kishi, qishloq aholisi 80.96 ming kishini tashkil qiladi.

Tuman markazi O‘rtal Osiyo temir yo‘l tarmoklari bilan bog‘langan. Buxoro—Olot yo‘nalishida poyezd qatnovi yo‘lga qo‘yilgan. Avtoyo‘llarning uz. 251 km.

Buxoroning Olot tumanida joylashgan, shifobaxsh tuz ko‘li haqida eshitganmisiz? U Turkmaniston chegarasining yaqinida joylashgan. Yana 2 km yo‘l bossangiz Lebap viloyati chegarasiga yetib borasiz. (Elektron xaritadan foydalanadiganlar $39^{\circ}14'40.84''$ — shimoliy kenglik, $69^{\circ}42'16.00''$ — sharqiylar uzunlik koordinatalarini kiritishlari mumkin).

REFERENCES

1. Toshpo’latova, S., & Tursuntoshova, S. (2024). KHOJA ABDULKHOLIQ GIJDUVANI. *Modern Science and Research*, 3(2), 87–93. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/30711>
2. Toshpo’latova, S. (2024). ETHNOLINGUISTICS OF ETHNOLOGIES OF BUKHARA. *Modern Science and Research*, 3(2), 1004–1011. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/29523>
3. Toshpo’latova, S. (2024). ETHNOLINGUISTICS. *Modern Science and Research*, 3(2), 500–507. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/29386>
4. Toshpo’latova, S. . (2024). RELIGIOUS ANTHROPOLOGY. *Modern Science and Research*, 3(1), 504–510. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/28281>
5. Toshpo’latova , S., & Jo’rayeva , M. . (2024). HISTORY AND ARCHITECTURAL MONUMENTS OF JONDOR DISTRICT. *Modern Science and Research*, 3(2), 447–450. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/31046>
6. Shakhnoza Shuhratovna, T. (2023). M. S. ANDREYEV’S WAY OF LIFE. *American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education* (2993-2769), 1(10), 655–659. Retrieved from <https://grnjournal.us/index.php/STEM/article/view/2280>
7. Shuhratovna, T. S. . (2024). Linguistic Anthropology. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, 4(3), 432–437. Retrieved from <https://inovatus.es/index.php/ejine/article/view/2792>
8. Toshpolatova Shakhnoza Shuhratovna. (2023). ETHNOLOGICAL ANALYSIS OF NATIONAL COSTUMES AND RITUALS OF TAIKS IN THE WORKS OF M. S. ANDREYEV. *International Journal Of History And Political Sciences*, 3(12), 42–47. <https://doi.org/10.37547/ijhps/Volume03Issue12-08>

9. Toshpo'latova , S. (2023). M. S. ANDREYEV-SCIENTIFIC CAREER. *Modern Science and Research*, 2(12), 801–807. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/27191>
10. Sh.Sh.Toshpo'latova, & I.N.Naimov. (2023). M.S. ANDREYEV – O’RTA OSIYO XALQLARI ETNOGRAFIYASINING YIRIK OLIMI. *Innovations in Technology and Science Education*, 2(8), 1214–1222. Retrieved from <https://humoscience.com/index.php/itse/article/view/698>
11. Toshpulatova Shakhnoza Shuhratovna. (2023). ETYMOLOGY OF TAJIK MARRIAGE CEREMONY. *International Journal Of History And Political Sciences*, 3(11), 17–23. <https://doi.org/10.37547/ijhps/Volume03Issue11-05>
12. Toshpo'latova , S. S. (2023). TOJIKLAR MILLIY KIYIM-KECHAKLARI VA “BESHMORAK” MAROSIMINING ETNOLOGIK TAHLILI. *SCHOLAR*, 1(28), 395–401. Retrieved from <https://researchedu.org/index.php/openscholar/article/view/5071>
13. Naimov, I. ., & Toshpo'latova, S. . (2023). MARRIAGE CEREMONY OF TAJIKS IN THE WORK OF MIKHAIL STEPANOVICH ANDREYEV “TADJKI DOLINI KHUF”. *International Journal of Intellectual Cultural Heritage*, 3(1), 12–16. Retrieved from <https://ihm.iscience.uz/index.php/ijich/article/view/205>
14. Toshpo'latova, S. (2023). ETHNOLOGICAL ANALYSIS OF CALENDRICAL CALCULATION AND LENGTH MEASUREMENTS OF KHUF VALLEY TAJIKS IN THE RESEARCHES OF M.S. ANDREYEV. *Modern Science and Research*, 2(10), 291–299. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/25092>
15. Toshpo'latova, S., & Ashurova, G. (2023). THE HISTORY AND DESCRIPTION OF THE WORK OF M. S. ANDREYEV - "ARK BUKHARI". *Modern Science and Research*, 2(9), 404–409. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/24229>
16. Toshpo'latova, S. . (2023). A STUDY OF THE WEDDING CEREMONY OF THE TAJIKS OF AFGHANISTAN. *Modern Science and Research*, 2(9), 84–89. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/23903>